




YOSHLARDA HARBIY XIZMAT MADANIYATI VA VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY XUSUSIYATLARI

Alisherov Javohir Bahodir o'g'li

DXX Chegara Qo'shinlari harbiy xizmatchisi

katta leytenant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21125471>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 15-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 30-iyun 2026 yil

KEY WORDS

harbiy xizmat madaniyati, vatanparvarlik, ijtimoiy falsafa, yoshlar ijtimoiylashuvi, tarixiy xotira, mudofaa doktrinasini, mafkuraviy immunitet, milliy xavfsizlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yoshlarda harbiy xizmat madaniyati va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari tahlil qilingan. Xususan, harbiy xizmat nafaqat jismoniy va taktik tayyorgarlik, balki yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat, qat'iy intizom va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim ma'naviy-axloqiy institut ekanligi ochib berilgan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy-strategik merosi misolida yoshlarda tarixiy xotira va milliy g'ururni tarbiyalash, zamonaviy axborot makonida "Xavfsizlik o'zingizdan boshlanadi" tamoyilini kundalik qadriyatga aylantirish hamda oila, ta'lim va mahalla institutlarining Qurolli Kuchlar bilan ijtimoiy hamkorligini kuchaytirishning ilmiy-amaliy mexanizmlari asoslangan.

Jamiyatning barqaror rivojlanishi va milliy xavfsizlikni ta'minlash bevosita yosh avlod ongida vatanparvarlik g'oyalari hamda mustahkam fuqarolik pozitsiyasining shakllanganlik darajasiga bog'liqdir. Bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini modernizatsiya qilish va Mudofaa doktrinasini takomillashtirish jarayonlari faqatgina moddiy-texnik bazani yangilashni emas, balki harbiy xizmatchilar va chaqiriqqacha yoshlarda yuksak ma'naviy-jangovar fazilatlarini tarbiyalashni ham talab etadi [1; 18-b]. Bu esa masalaga chuqur ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashishni, xususan, yoshlarda "harbiy xizmat madaniyati"ni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etishni taqozo qiladi.

Ijtimoiy falsafada harbiy xizmat madaniyati – bu faqatgina harbiy nizomlar va taktik bilimlarni o'zlashtirish emas, balki shaxsning Vatan oldidagi burchini chuqur anglashi, jamoakorlik ruhi va yuksak axloqiy me'yorlarni o'zida mujassam etgan tizimli ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilinadi [2; 42-b]. Yoshlar o'rtasida ushbu madaniyatni shakllantirish ularning jamiyat hayotiga to'laqonli ijtimoiylashuvining muhim bosqichi hisoblanadi. Shu ma'noda, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni nafaqat jismonan chiniqtiradi, balki ularda iroda, qat'iyat, strategik fikrlash ko'nikmalarini va intellektual salohiyatni ham kamol toptiradi [3; 115-b].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi qabul qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadi milliy armiyamiz saflarini jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va yuksak fuqarolik mas'uliyatiga ega kadrlar bilan to'ldirishdan iborat. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, zamonaviy armiyaning qudrati faqat uning texnik ta'minoti bilan emas, balki harbiy xizmatchilarning ma'naviy ruhi, vatanga sadoqati va harbiy xizmatni yuksak qadriyat sifatida qabul qilishi bilan ham o'lchanadi [4; 56-b]. Shu bois, mazkur maqolada yoshlarda harbiy xizmat madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari, uning yoshlar ijtimoiylashuvidagi o'rni va bugungi kundagi ahamiyati tizimli tahlil qilinadi.

Bugungi kunda harbiy xizmat madaniyati nafaqat armiya ichki tartib-qoidalari majmui, balki butun jamiyat barqarorligi va xavfsizligini ta'minlovchi qudratli ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, yoshlar ijtimoiylashuvida harbiy muhitning o'rni beqiyosdir. Harbiy xizmat yoshlarda qat'iy intizom, ijtimoiy mas'uliyat hissi, jamoaviy birdamlik va ekstremal vaziyatlarda tezkor hamda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ilmiy tadqiqotlar va sotsiologik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini to'laqonli olgan yoshlarda ijtimoiy faollik, stressga chidamlilik va qonunga itoatkorlik darajasi boshqa tengdoshlariga nisbatan ancha yuqori bo'ladi [5; 112-b]. Bu jarayon, o'z navbatida, jamiyatda huquqiy va axloqiy normalarning mustahkamlanishiga, ijtimoiy anomalialar va og'ishishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmat madaniyatining fundamental asoslari bevosita xalqimizning boy tarixiy va harbiy-jangovar merosiga borib taqaladi. Xususan, buyuk sarkardalarimizning harbiy san'ati va davlat boshqaruvi tajribasi bugungi avlod uchun tengsiz qadriyat manbai hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy san'ati va davlat arbobi sifatidagi faoliyati, uning qo'shin boshqarishdagi innovatsion taktik usullari hamda harbiy muhandislik salohiyati yoshlar ongida milliy g'urur tuyg'usini uyg'otishda ulkan ahamiyatga ega. Bobur merosini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish orqali yoshlarda strategik fikrlash, vatan himoyasiga intellektual yondashuv va yuksak lashkarboshilik madaniyatini shakllantirish mumkin [6; 45-b]. Bu tarixiy xotira yoshlarni o'z vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashda kuchli mafkuraviy immunitet vazifasini o'taydi va ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Globalashuv va turli axborot xurujlari kuchaygan bugungi sharoitda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi mazmunan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Endilikda vatanparvarlik faqatgina qo'lga qurol olib chegarani qo'riqlashni emas, balki axborot, iqtisodiy va g'oyaviy makonda ham milliy manfaatlarini himoya qila olishni anglatadi. Shu o'rinda, zamonaviy yoshlar ongiga "Xavfsizlik o'zingizdan boshlanadi" degan hayotiy va ijtimoiy-falsafiy konseptni singdirish o'ta dolzarbdir. Bu yondashuv har bir fuqaro, ayniqsa, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlar, avvalo, davlat xavfsizligini ta'minlashda o'zining shaxsiy mas'uliyatini chuqur his qilishi kerakligini anglatadi [7; 89-b]. O'z qalbida, oilasida, raqamli makonda va kundalik faoliyatida xavfsizlik madaniyatini shakllantira olgan yoshlarga jamiyatning ishonchli va munosib himoyachisiga aylanadi.

Harbiy xizmat madaniyati yoshlar ijtimoiylashuvida o'ziga xos samarali ijtimoiy lift vazifasini ham bajaradi. Armiya muhitida shakllangan xarakter xususiyatlari – vaqtni qadrlash (taym-menejment), liderlik qobiliyati, maqsad sari intiluvchanlik va jamoa manfaati yo'lida o'z xohishlaridan kecha olish kabi fazilatlar – yoshlarning keyingi fuqarolik hayotida, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohalarida ham muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi. Ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda qayd etilishicha, harbiy jamoada turli ijtimoiy qatlam, millat va hudud vakillarining yagona maqsad atrofida birlashishi jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyani kuchaytirib, yoshlar o'rtasida bag'rikenglik, o'zaro hurmat va do'stlik qadriyatlarini qaror toptiradi [8; 34-b].

Bugungi kunda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, mahalla va oila institutlarining harbiy tuzilmalar bilan ijtimoiy hamkorligini uzluksiz ta'minlash zarur.

Yoshlarni chaqiriqqacha harbiy tayyorlash tizimini zamonaviy pedagogik va psixologik usullar asosida takomillashtirish, harbiy xizmat nufuzini oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini intellektual, tahliliy va interaktiv formatlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir [9; 102-b]. Faqatgina tashqi ta'sir yoki rasmiy tadbirlar orqali emas, balki yuksak e'tiqod va ongli tanlov asosida shakllangan vatanparvarlikgina o'zining hayotiyliigi va mustahkamligini namoyon etadi.

Armiya va xalq yakdilligini ta'minlash, yoshlarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini yuksaltirish orqali jamiyatda har qanday tashqi tahdidlarga, destruktiv g'oyalarga qarshi tura oladigan mustahkam ma'naviy-mafkuraviy qo'rg'on barpo etiladi [10; 77-b]. Bu strategik vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish bevosita globallashuv davri chaqiriqlariga munosib javob bera oladigan, o'z kasbining ustasi bo'lgan, ham jismonan, ham ma'nan barkamol yoshlar avlodini tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir.

Olib borilgan ijtimoiy-falsafiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda harbiy xizmat madaniyati va vatanparvarlik g'oyalarini kamol toptirish bugungi globallashuv va murakkab axborotlashuv davrida davlat xavfsizligi hamda jamiyat barqarorligini ta'minlashning eng muhim shartidir. Harbiy xizmat faqat jismoniy va taktik tayyorgarlik maktabi emas, balki yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat, qonunga itoatkorlik va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi qudratli ma'naviy-axloqiy institutdir.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni uzluksiz pedagogik, sotsiologik va ijtimoiy-falsafiy yondashuvni talab etadi. O'z Vatanning sadoqatli, ongli va yuksak ma'naviyatli himoyachilarini tarbiyalash – Yangi O'zbekistonning poydevorini mustahkamlashdagi eng ustuvor vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibragimov U. Harbiy xizmat madaniyati va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati. – Toshkent: Mudofaa vazirligi nashriyoti, 2021. – 156 b.
2. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 210 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 64 b.
4. Hasanov B. Tarixiy xotira va milliy g'urur: Temuriylar harbiy san'ati misolida. – Toshkent: Sharq, 2015. – 188 b.
5. Mamajonov I.O. Axborotlashgan jamiyatda yoshlar dunyoqarashini shakllantirish omillari. – Toshkent: Universitet, 2020. – 134 b.
6. Rahmonov N. Armiya va yoshlar: ijtimoiylashuvning o'ziga xos xususiyatlari. Sotsiologik tadqiqotlar. – Toshkent: Akademiya, 2022. – 176 b.
7. Abdullayev M. Zamonaviy xavfsizlik tushunchasi va milliy armiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – 142 b.
8. To'xtayev A. Vatan himoyasi – oliy qadriyat sifatida. Ijtimoiy-falsafiy tahlil. – Samarqand: SamDU nashri, 2019. – 120 b.
9. Ergashev I. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va harbiy-ma'naviy taraqqiyot. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2016. – 202 b.